

# O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI MILLIY-MADANIY SEMALI LEKSIK BIRLIKLARNI TARJIMA QILISH MUAMMOLARI

*Jo'raqulova Rayhon Xolboevna, Denov tadbirkorlik va pedagogika universiteti tayanch doktoranti*

## TRANSLATION PROBLEMS OF LEXICAL UNITS WITH NATIONAL-CULTURAL SEMANTICS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

*Jo'raqulova Rayhon Kholboevna, Basic Doctoral Student, Denov University of Entrepreneurship and Pedagogy*

### ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНОЙ СЕМАНТИКОЙ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

*Джуракулова Райхон Холбоевна, базовый докторант  
Denovского университета предпринимательства и педагогики*

*Annotatsiya:* Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi milliy-madaniy semantik yuklamaga ega bo'lgan leksik birliklarni tarjima qilishdagi asosiy muammolar tahsil etilgan. Har ikki tilga xos bo'lgan frazeologik birkimlar, realiyalar, ramziy ifodalar va madaniy anglanmalar milliy tafakkur, qadriyatlar va tarixiy xotira bilan bevosita bog'liqdir.

*Kalit so'zlar:* milliy-madaniy semantika, leksik birlik, tarjima muammolari, konnotatsiya, frazeologizmlar, madaniyatlararo kommunikatsiya, deskriptiv tarjima, kontekstual moslik, tarjima strategiyalari, realiyalar tarjimasi.

*Annotation:* This article analyzes the main challenges in translating lexical units with national and cultural semantics from Uzbek and English. Phraseological expressions, realia, symbolic meanings, and culturally embedded concepts specific to both languages are deeply tied to national mindset, values, and historical memory.

*Keywords:* national-cultural semantics, lexical units, translation problems, connotation, phraseologisms, intercultural communication, descriptive translation, contextual equivalence, translation strategies, translation of realia.

*Аннотация:* В данной статье рассматриваются основные трудности перевода лексических единиц с национально-культурной семантикой с узбекского и английского языков. Фразеологизмы, реалии, символические значения и культурно обусловленные концепты, присущие обоим языкам, тесно связаны с национальным менталитетом, ценностями и исторической памятью.

*Ключевые слова:* национально-культурная семантика, лексические единицы, проблемы перевода, коннотация, фразеологизмы, межкультурная коммуникация, описательный перевод, контекстуальное соответствие, переводческие стратегии, перевод реалий.

**KIRISH.** Har bir til xalqning tarixiy xotirasini, milliy dunyoqarashi va ijtimoiy ongini o'zida mujassam etgan murakkab ijtimoiy-madaniy tizimdir. Til orqali insoniyat nafaqat fikr almashadi, balki o'zining madaniy, diniy va axloqiy qarashlarini, qadriyatlarini va hayot falsafasini namoyon etadi. Ayniqsa, leksik tizimdagি milliy-madaniy semali birliklar tilning madaniyat ko'zgusi sifatida ahamiyat kasb etadi. Bunday birliklar xalqning tarixiy-madaniy tajribasi, turmush tarzi va ijtimoiy ongida shakllangan o'ziga xos semantik qatlamlarga ega bo'ladi. O'zbek va ingliz tillarida milliy-madaniy semantik yuklamaga ega bo'lgan leksik birliklar o'z mazmun-mohiyatida xalqning diniy e'tiqodlari, urf-odatlari, mentaliteti va tarixiy xotirasini o'zida ifodalaydi. Masalan, o'zbek tilidagi "beshik to'yi", "oq fotiha", "ko'z tegmoq", "ota-onani rozi qilish" kabi iboralar faqatgina leksik birlik bo'lib qolmay, balki o'zbek xalqining madaniy tafakkurining mahsuli hisoblanadi. Ingliz tilida esa "April Fool's Day", "blue blood", "pub culture", "Thanksgiving" kabi



<https://orcid.org/0009-0003-3231-328X>  
e-mail:  
johnsonelif7@gmail.com



birliklar ingliz jamiyatining tarixiy shakllangan urfodatlari, ijtimoiy tuzilmasi va qadriyatları bilan uzviy bog‘langan. Bunday leksik birliklarni tarjima qilishda bir qator muammolar yuzaga chiqadi. Ularning boshida — ekvivalent yetishmasligi, semantik ko‘lamdagি tafovutlar, kontekstga mos kelmaydigan tarjimalar, hamda ma’no va madaniy yuklamaning to‘liq uzatilmasligi turadi. Shuningdek, ba’zi birliklar tarjima qilinganida o‘z semantik chuqurligini yoki estetik ta’sir kuchini yo‘qotadi. Shu sababli tarjimon nafaqat til bilimdoni, balki madaniyatlararo vositachi sifatida ham faoliyat yuritishi kerak bo‘ladi. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi milliy-madaniy semantik birliklarning tarjima jarayonidagi muammolari tahlil qilinadi. Shuningdek, ularni adekvat ifodalashning samarali usullari — deskriptiv, izohli va kontekstual tarjima strategiyalari asosida yoritiladi. Mazkur masalani o‘rganish til va madaniyat o‘rtasidagi murakkab, ammo uzviy bog‘liqlikni chuqurroq anglashga yordam beradi hamda tarjima nazariyasiga amaliy yondashuv baxsh etadi[1].

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA**

**METODOLOGIYASI.** Birliklar tahliliga oid muhim manbalardan foydalanildi. G‘aybullayev (2015) va Sharipov (2009) asarlari til va madaniyat o‘zaro bog‘liqligini tushuntiruvchi asosiy nazariy manba bo‘lib xizmat qildi. Nida (1964) tarjimada madaniy kontekstning muhimligini ko‘rsatgan bo‘lsa, Wierzbicka (1997) madaniy “kalit so‘zlar” orqali milliy tafakkurni ohib bergen. Frazeologik birliklarni tahlil qilishda Kunin (2000) va Kövecses (2005) asarlaridan foydalanildi. Ular madaniy metaforalar va milliy obrazlarning til strukturasini bilan qanday uyg‘unlashishini ohib beradi. Halliday (1978) tilni ijtimoiy semiosfera sifatida tahlil qilgan bo‘lsa, Crystal (2003) ingliz tilining tizimiylari va tarixiy jihatlarini yoritadi. Baldry va Thibault (2006) multimodal yondashuv orqali matnni nafaqat lingvistik, balki vizual va audial belgilari asosida tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi. Yuldasheva (2018) esa lingvokulturologik birliklarning tarjimadagi muammolarini tahlil qilib, amaliy tavsiyalar beradi. Metodologik asos sifatida semantik tahlil, madaniy qiyoslash, frazeologik tahlil va multimodal yondashuvlar tanlandi. Bu yondashuvlar mavzuni chuqur va har tomonlama o‘rganishga xizmat qiladi.

### **METODIK TAHLIL VA ILMIY**

**NATIJALAR.** Mazkur tadqiqot doirasida o‘zbek va ingliz tillarida faol ishlatiluvchi milliy-madaniy semantik yuklamali leksik birliklarning tarjimasi bilan bog‘liq lingvomadaniy muammolar chuqur tahlil qilindi. Ishning metodologik asosi sifatida qiyosiy-tipologik, deskriptiv-analitik va kontekstual-semantik yondashuvlar qabul qilindi. Shuningdek,

lingvokulturologiya, tarjima nazariyasi va semasiologiya sohalariga oid konsepsiylar tadqiqot asosiga singdirildi[2]. Tahlil obyekti sifatida tanlangan 50 dan ortiq leksik birlik — o‘zbek va ingliz tillariga xos, chuqur milliy-madaniy asosga ega bo‘lgan so‘z va frazeologizmlar — madaniy konnotatsiyasi, funksional-kommunikativ ahamiyati va tarjima paytidagi moslik darajasiga ko‘ra sinflashtirildi. O‘zbek tilidagi “dugona”, “beshik to‘yi”, “oq fotiha”, “el-yurt roziligi”, “ko‘z tegmoq”, “ona suti”, “yuz-ko‘zi yorug” kabi birliklar xalqning ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlarini semantik jihatdan aks ettiradi. Ingliz tilida esa “blue blood”, “white lie”, “Thanksgiving”, “Royal family”, “pub culture”, “April Fool’s Day” kabi birliklar britan yoki amerikan jamiyatining tarixiy-madaniy tajribasidan oziqlangan[3]. Qiyosiy tahlil jarayonida aniqlandiki, bunday leksik birliklarni tarjima qilishda universal ekvivalentlarning mavjud emasligi yoki yetaricha madaniy moslikka ega bo‘lmagan nomuvofiq birliklardan foydalanish — semantik buzilishlarga va mazmun yo‘qotilishiga olib keladi. Masalan, “oq fotiha berdi” iborasining “gave blessing” shaklida tarjimasi yuzaki ko‘rinadi, chunki bu ibora nafaqat diniy konnotatsiyani, balki ijtimoiy-axloqiy rozilik, ota-onalik maqomi va nikoh marosimining an‘anaviy jihatlarini o‘zida mujassam etadi. Xuddi shuningdek, “white lie” iborasining oddiy “yolg‘on” shaklida tarjima qilinishi ingliz madaniyatida u bilan bog‘liq yumshoqlik, ijtimoiy maqbullik va zararsizlik kabi semantik soyalarni yo‘qqa chiqaradi[4-5]. Tarjima jarayonida yuzaga keladigan bu kabi muammolarni bartaraf etish uchun bir qator metodik yondashuvlar amalda sinab ko‘rildi. Bular qatoriga deskriptiv tarjima (ma’no bayoni), izohli tarjima (madaniy sharhli), kontekstual almashtirish va funksional ekvivalentlash usullari kiradi. Masalan, “beshik to‘yi” iborasini “a cradle ceremony for a newborn in Uzbek tradition” shaklida deskriptiv tarjima qilish uning madaniy mohiyatini yetkazishda samaralidir[7]. Izohli tarjima esa o‘quvchining madaniy kontekstni to‘liq anglashini ta’minlaydi, bu ayniqsa realiyalar tarjimasida dolzarb hisoblanadi. Empirik kuzatuvlar shuni ko‘rsatmoqdaki, tarjimon nafaqat lingvistik kompetensiyaga, balki madaniyatlararo kommunikativ sezuvchanlikka ega bo‘lishi lozim. Chunki har bir madaniyat o‘z semantik maydonini vujudga keltiradi, bunda so‘zlar ortida turli qadriyatlar, rasm-rusumlar, e’tiqodlar va tarixiy kontekstlar yashiringan bo‘ladi[8]. Bu esa tarjimonni chuqur semantik tahlilga, konnotativ qatlamlarni anglashga va kontekstual moslikni ta’minalashga majbur qiladi. Yakuniy natija shuni ko‘rsatadiki, milliy-madaniy semantik birliklarni tarjima qilish jarayoni oddiy leksik almashtirish emas, balki murakkab madaniy rekonstruksiya jarayonidir. Bunday hollarda tarjimon

vositachi emas, balki ikki madaniyatni bir-biriga yaqinlashtiruvchi faol ishtirokchidir. Shu bois bunday birliklarni tarjima qilishda nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy kompetensiyalar — pragmatik idrok, kontekstual fikrlash va madaniyatlararo sezgirlik ham muhim o‘rin egallaydi[9-10].

**XULOSA.** O‘zbek va ingliz tillariga xos bo‘lgan milliy-madaniy semantik qatlamlı leksik birliklari xalqning tarixiy-madaniy tajribasi, urf-odatlari, axloqiy qadriyatlari va mentalitetini ifodalovchi muhim til birliklari sanaladi. Ularning tarjimasi esa faqatgina til darajasidagi almashtirish emas, balki chuqur madaniy va semantik transformatsiyani talab etadi. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ushbu turdagи birliklarning tarjimasida eng katta muammo — ekvivalentlikning yo‘qligi, ya’ni boshqa tilga o‘ziga xoslik va ma’no yuklamasini to‘liq aks ettira oladigan mos ifodaning topilmasligidir. Tarjimon ushbu birliklarni adekvat tarzda ifodalashda lingvistik kompetensiyadan tashqari, madaniy tafakkur va sotsiolingvistik konteksti to‘liq anglab yetishi zarur. Bunday hollarda deskriptiv tarjima, izohli bayon, kontekstual almashtirish, madaniy parallel va funksional tenglikka asoslangan strategiyalar eng samarali yondashuvlar sifatida e’tirof etiladi. Milliy-madaniy birliklarning tarjima jarayonidagi noto‘g’ri interpretatsiyasi yoki yuzaki yondashuv madaniyatlararo kommunikatsiyada anglashmovchiliklar va semantik noaniqliklar keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois tarjimon nafaqt tarjima vositachisi, balki ikki til va madaniyat o‘rtasidagi g‘oyaviy va semantik ko‘priй vazifasini bajarishi zarur. Tadqiqot natijalari asosida xulosa qilish mumkinki, milliy-madaniy birliklarni

tarjima qilish muammolarini yengib o‘tish uchun tarjima nazariyasining zamonaviy yondashuvlari bilan bir qatorda madaniyatshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va pragmalingvistika kabi fanlar bilan uzviy integratsiyalashgan holatda ishlash zarur.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Baldry, A., & Thibault, P.J. (2006). Multimodal transcription and text analysis: A multimedia toolkit and coursebook. London: Equinox Publishing.
2. Crystal, D. (2003). The Cambridge encyclopedia of the English language (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
3. G‘aybullayev, R. (2015). Til va madaniyat. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Halliday, M.A.K. (1978). Language as social semiotic: The social interpretation of language and meaning. London: Edward Arnold.
5. Kövecses, Z. (2005). Metaphor in culture: Universality and variation. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Kunin, A. V. (2000). English phraseology: A course of lectures. Moscow: Vysshaya Shkola.
7. Nida, E. A. (1964). Language and culture: Contexts in translation. Stanford, CA: Stanford University Press.
8. Sharipov, Sh. (2009). Semasiologiya asoslari. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
9. Wierzbicka, A. (1997). Understanding cultures through their key words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. Oxford: Oxford University Press.
10. Yuldasheva, M.A. (2018). Lingvokulturologik birliklarning tarjimasi muammolari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

